



Toshkentviloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 40 139 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi




Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- yanvar holatiga, birlik	2026- yil 1- yanvar holatiga, birlik
Toshkent viloyati	34 389	40 139
Oqqo'rg'on tumani	827	978
Ohangaron tumani	916	1 097
Bekobod tumani	921	1 174
Bo'stonliq tumani	1841	2 147
Bo'ka tumani	918	1 076
Quyi Chirchiq tumani	1 038	1 231
Zangiota tumani	4 229	4 925
Yuqori Chirchiq tumani	1 783	2 031
Qibray tumani	3 072	3 554



Parkent tumani	2 036	2 583
Piskent tumani	780	910
O'rta Chirchiq tumani	1 511	1 750
Chinoz tumani	913	1 015
Yangiyo'l tumani	1556	1 894
Toshkent tumani	2 506	2 930
Nurafshon shahri	805	922
Olmaliq shahri	1 399	1 662
Angren shahri	1 937	2 101
Bekobod shahri	1 154	1 249
Ohangaron shahri	757	901
Chirchiq shahri	2 301	2 657
Yangiyo'l shahri	1 189	1 352

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-dekabrida 8 556 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 3 487 ta, boshqa xizmatlarda 1 180 ta, sanoatda 1 159 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 847 ta tashkil etilgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-dekabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik
Toshkent viloyati	6 827	8 556
Oqqo'rg'on tumani	201	206
Ohangaron tumani	179	272
Bekobod tumani	222	352
Bo'stonliq tumani	420	465
Bo'ka tumani	239	271
Quyi Chirchiq tumani	177	276
Zangiota tumani	770	1019
Yuqori Chirchiq tumani	306	371
Qibray tumani	503	702
Parkent tumani	570	538
Piskent tumani	148	186
O'rta Chirchiq tumani	284	376
Chinoz tumani	187	204
Yangiyo'l tumani	276	424
Toshkent tumani	456	652
Nurafshon shahri	226	269
Olmalik shahri	264	370
Angren shahri	362	332
Bekobod shahri	244	262
Ohangaron shahri	144	216
Chirchiq shahri	418	513
Yangiyo'l shahri	231	280

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 55,0 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,1 % punktga kamaygan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 54 173,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 31,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,1 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 28 537,1 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 84,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, 79 351,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 55,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 125,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyo'l (90,8%), O'rtachirchiq (90,3 %), Chinoz (84,0 %) va Toshkent (82,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 48 368,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 91,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 108,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Bekobod (99,9 %), Ohangaron (99,8 %) va Chirchiq (99,9 %) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 39 726,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 87,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 120,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Oqqo'rg'on (97,8 %), O'rtachirchiq (97,0 %), Parkent (95,5 %) va Bekobod (95,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 52 427,6 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 73,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 115,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Bo'ka (85,1%), Oqqo'rg'on (83,2%), Parkent (77,8%), O'rta Chirchiq (74,8 %) tumanlarida hamda Yangiyo'l (90,7 %) shahri hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 991,7 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 44,7 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bo'ka (100,0%), Bekobod (99,9 %), Oqqo'rg'on (91,8 %), Qibray (88,8 %), O'rta Chirchiq (84,1 %) tumanlarida hamda Yangiyo'l shahrida (96,9 %) ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 3 651,2 mln AQSH dollarini yoki jami importning 62,0 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushini Oqqo'rg'on (98,4 %), Bo'ka (99,5 %), Parkent (96,1 %), Zangiota (94,5 %), Toshkent (91,9 %), Bekobod (88,6 %), O'rta Chirchiq (87,0 %) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 29,0 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 1,3 % punktga kamaygan.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 52,0 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 2,9 % punktini tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,3 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'zgarish bo'lmagan.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,4 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,2 punktga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlaridynamikasi



V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari


Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida

30,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida esa 36,5 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,7 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 57,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 56,4 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-dekabrida 12,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-dekabr oylariga kelib, bu ko'rsatkich 7,2 % bo'lgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 31,4 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 48,6 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 56,6 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 48,3 % yoki 8,3 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 11,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-dekabr oylariga kelib, bu ko'rsatkich 3,1 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 39,1 % ni, savdo sohasida – 37,5 % ni, sanoat sohasida – 35,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq o'rmon va baliqchilik sohasida – 63,1 % ni qurilishda – 61,9% ni, va sanoatda – 56,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish sohasida – 10,3 % ni, sanoat sohasida – 7,9 % ni, savdo sohasida – 7,5 % ni tashkil etdi.




Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)

Kichik korxona va mikrofirmalarda 2025-yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar bo'yicha yaxshilanish deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoat sohasida – 29,8 % ni va xizmatlar sohasida – 30,1 % ni, savdo sohasida – 30,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar bo'yicha o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 59,6 % ni, savdo sohasida – 55,2 % ni va sanoat sohasida – 54,2 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlari kamaygan deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish sohasida – 9,8 % ni, sanoat sohasida – 8,0 % ni va qishloq o'rmon va baliqchilik sohasida – 6,5 % ni tashkil etdi.



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati– tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidano'tganhamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari vamanfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lganuyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:
O. Xudoynazarov
71 203-45-00 (4530)

Manzil:
100198, Toshkent viloyati,
Nurafshon shahar, Toshkent
yo'li ko'chasi, 90-uy